

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun viza qoidalari

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibini, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish, berish va undan foydalanish, shuningdek, konsullik hisobiga qo'yish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti (keyingi o'rinlarda — biometrik pasport) — O'zbekiston Respublikasi hududida egasining shaxsini va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, pasport egasining shaxsiy biografik ma'lumotlari va biometrik parametrlari saqlangan elektron axborot tashuvchiga (chipga) ega bo'lgan hujjat;

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti (keyingi o'rinlarda — xorijga chiqish biometrik pasporti) — xorijga chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish, shuningdek, xorijda turish vaqtida egasining shaxsini va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, pasport egasining shaxsiy biografik ma'lumotlari va biometrik parametrlari saqlangan elektron axborot tashuvchiga (chipga) ega bo'lgan hujjat;

identifikatsiya elektron kartasi (keyingi o'rinlarda — ID-karta) — O'zbekiston Respublikasi hududida egasining shaxsini hamda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, har bir fuqaroning yagona identifikatsiya raqami va uning shaxsiy ma'lumotlari saqlangan, davlat xizmatlaridan foydalanish vaqtida shaxsni aniqlash uchun foydalaniladigan hujjat;

verifikatsiya — pasportga kiritilgan biometrik parametrlar uning egasining biometrik parametrlari bilan mosligini mashinada tekshirish;

xorijda vaqtincha bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari — O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, xorijga chiqib, vaqtincha u erda bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

xorijda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari — O'zbekiston Respublikasidagi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxati bekor qilinib, xorijga doimiy yashashga chiqish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma rasmiylashtirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

(2-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son) pasport olish uchun talabnoma — pasport oluvchi haqida ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan shakllantirilgan biografik ma'lumotlar va biometrik parametrlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat (keyingi o'rinlarda — talabnoma);

konsullik okrugi — konsullik funksiyalarini bajarish uchun konsullik muassasasi ish olib boradigan hudud bo'lib, u bir nechta davlat hududini o'z ichiga olishi mumkin;

konsullik muassasasi — O'zbekiston Respublikasining chet davlatda ta'sis etiladigan diplomatik vakolatxonasining konsullik bo'limi, O'zbekiston Respublikasining bosh konsulxonasi, konsulxonasi, vitse-konsulligi va konsullik agentligi;

konsullik ro'yxati — tegishli konsullik okrugi hududiga kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijdagi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari qoshida belgilangan tartibda qayddan o'tkazish; vaqtincha konsullik ro'yxati — xorijda vaqtincha bo'ladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijdagi O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan qayddan o'tkazish;

doimiy konsullik ro'yxati — doimiy yashash uchun xorijga chiqish ruxsatnomasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasasi konsullik okrugi hududida doimiy yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini qayddan o'tkazish;

personallashtirish — pasport egasining biografik ma'lumotlarini va biometrik parametrlarini pasport blankiga kiritish;

ma'lumotlarni yig'ish punkti — pasport olish uchun murojaat qilgan fuqarolarning biografik ma'lumotlarini va biometrik parametrlarini jamlash, ushbu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markaziga (keyingi o'rinlarda — DPM) yuborish hamda fuqarolarga yangi rasmiylashtirilgan biometrik parametrli pasportlarni berish vazifalarini bajaruvchi ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari, Adliya vazirligining davlat xizmatlari markazlari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik-huquqiy departamenti, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari.

(2-bandning o'n beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-112-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2022-y., 06/22/112/0326-son)

3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlardan tashqari holda, ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda xorijga erkin chiqish va O'zbekiston Respublikasiga kirish huquqiga ega.

4. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijga chiqadigan hollarda ularga xorijga chiqish biometrik pasporti rasmiylashtiriladi. Xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ham xorijga chiqish biometrik pasportiga ega bo'lishlari shart.

O'zbekiston Respublikasining biometrik diplomatik pasporti bilan xorijga chiqish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 16-avgustdagi PF-4554-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining biometrik diplomatik pasporti to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5885-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 06/20/5885/0067-son)

5. Xorijga chiqish biometrik pasporti har qanday davlatga chiqish uchun haqiqiydir.

Xorijda doimiy yashayotgan va doimiy konsullik ro'yxatida turadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish biometrik pasporti, uning egasi O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan davrda shaxsni tasdiqlovchi hujjat hisoblanib, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun haqiqiydir.

6. Xorijga chiqish biometrik pasporti O'zbekiston Respublikasining mulkidir va uning egasi O'zbekiston Respublikasining himoyasida bo'ladi.

7. Xorijga chiqish biometrik pasporti fuqarolarga quyidagi amal qilish muddatlariga beriladi:

tug'ilgan kundan boshlab bir yoshgacha — ikki yil muddatga;
bir yoshdan 16 yoshgacha — 5 yil muddatga;

16 yoshdan oshgan shaxslarga — 10 yil muddatga.

Amal qilish muddati tugaganidan keyin xorijga chiqish biometrik pasporti ma'lumotlarni yig'ish punktiga topshiriladi.

8. Xorijga chiqish biometrik pasporti blanki qat'iy hisobga olinadigan hujjat hisoblanadi.

Xorijga chiqish biometrik pasporti blanklarini tayyorlash "Davlat belgisi" davlat ishlab chiqarish birlashmasida amalga oshiriladi. Personallashtirish, hisobga olish ishlari hamda tayyorlash vaqtida buzilgan va ma'lumotlarni yig'ish punktlaridan almashtirish uchun qaytarilgan pasportlarni yo'q qilish — DPMda, xorijga chiqish biometrik pasportlarini egalari berish va haqiqiy bo'lmagan xorijga chiqish biometrik pasportlarini yo'q qilish — ma'lumotlarni yig'ish punktlarida amalga oshiriladi.

Xorijga chiqish biometrik pasportlarini O'zbekiston Respublikasi hududida yetkazib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Davlat feldyegerlik xizmati (keyingi o'rinlarda — DFX) tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijga chiqish biometrik pasportlarini xorijdagi ma'lumotlarni yig'ish punktlariga va konsullik muassasalaridan O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berish belgilangan tartibda diplomatik pochta vositasi orqali amalga oshiriladi.

9. Xorijga chiqish biometrik pasporti belgilangan namuna bo'yicha tayyorlanadi va ingliz tilida personallashtiriladi.

10. Xorijga chiqish biometrik pasporti blankiga quyidagi asosiy ma'lumotlar kiritiladi:

pasportni hujjatning hujjatning pasportni pasport familiya, fuqaroligi; tug'ilgan tug'ilgan jinsi; berilgan bergan amal egasining egasi haqidagi mashina o'qiydigan ma'lumotlar.	bergan bergan seriyasi ism, qilish muddati raqamli	davlatning davlatning va ota tugaydigan	nomi; nomi; turi; kodi; raqami; ismi; sanasi; joyi; sana; organ; sana; surati;
--	--	---	---

11. Chipga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

pasport egasining qo'l barmoqlarining izlari — 16 yoshga yetganidan keyin.	egasining raqamli	biografik	ma'lumotlari; surati;
--	----------------------	-----------	--------------------------

12. Xorijga chiqish biometrik pasportiga quyidagi qaydlar kiritiladi:

pasport egasining xorijda doimiy yashash uchun chiqishiga ruxsat berilganligi to'g'risida mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shtamp;
(12-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

(12-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son) davlat chegarasidan o'tganligi to'g'risida;

konsullik ro'yxatiga olingani yoki konsullik ro'yxatidan chiqarilgani to'g'risida;
nikoh qayd etilganligi yoki bekor qilinganligi to'g'risida;
xorijiy davlatlarga kirish uchun ruxsatnoma (viza) to'g'risida;

hamrohlik qiluvchi shaxslar to'g'risida (voyaga yetmagan fuqarolar uchun) mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shtamp;
(12-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)
ilgari qo'yilgan qaydlar bekor qilinganligi to'g'risida.
Pasportda uning egasining imzosi bo'lishi shart.
Pasport egasi qonining guruhi va rezus-mansublik to'g'risidagi qaydlar uning roziligi bilan amalga oshiriladi.

13. Xorijga chiqish biometrik pasportiga:

ichki ishlar organlari bo'linmalari tomonidan — xorijda doimiy yashash uchun chiqishiga ruxsat berilganligi haqidagi, hamrohlik qiluvchi shaxslar haqidagi (voyaga yetmagan fuqarolar uchun);
(13-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)
chegara nazorati bo'linmalari tomonidan — Davlat chegarasidan o'tganlik holati haqidagi;

fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan — nikoh qayd etilganligi va nikoh bekor qilinganligi haqidagi (doimiy konsullik ro'yxatida turib, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan fuqarolar uchun);
sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan — qon guruhi va rezus-mansublik haqidagi;

O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari tomonidan — vaqtinchalik va doimiy konsullik ro'yxatiga olish yoki konsullik ro'yxatidan chiqarish haqidagi, nikoh qayd etilganligi va nikoh bekor qilinganligi haqidagi, hamrohlik qiluvchi shaxslar haqidagi (voyaga yetmagan fuqarolar uchun);

chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan — xorijiy davlatlarga kirish ruxsatnomalari (kirish vizasi) haqidagi qaydlar kiritiladi.

Muassasalar zarur hollarda o'zlari ilgari qo'ygan qaydlarni bekor qilganliklari to'g'risida qaydlar kiritishlari mumkin.

Pasportlarga ushbu Nizomda nazarda tutilmagan yozuvlarni va qaydlarni kiritish taqiqlanadi.

14. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolardan xorijga chiqish biometrik pasportlari mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan olib qo'yiladi va xizmat tugagunga qadar saqlanadi. Muddatli harbiy xizmat tugaganidan keyin mudofaa ishlari bo'limlari olib qo'yilgan xorijga chiqish biometrik pasportlarni fuqarolarga ular harbiy hisobga qo'yilganidan keyin o'n kun muddatda qaytarib berishlari shart. Shartnoma asosida harbiy xizmatga, o'qish uchun oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirgan fuqarolardan xorijga chiqish biometrik pasportlari harbiy qismlarning hamda oliy harbiy ta'lim muassasalarining kadrlar bilan ishlash organlari tomonidan olib qo'yiladi va shtablarda saqlanadi.

Harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat nazarda tutilgan tegishli vazirliklarda va idoralarda saqlanayotgan xorijga chiqish biometrik pasportlari amal qilish muddati tugaganidan keyin belgilangan tartibda yo'q qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish punktlariga jo'natiladi.

2-bob. Xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tartibi

15. Fuqarolarga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston	Respublikasidan	tashqariga	chiqishda;
ilgari xorijga chiqish biometrik pasporti bilan olingan	fuqarolar	hujjatlashtirilmagan, xorijda	konsullik ro'yxatiga bo'lganida;
farzand	xorijda		tug'ilganida;
xorijga chiqish biometrik pasportining	amal qilish muddati		tugaganida;

familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, jinsi o'zgarganida; yozuvlarda noaniqliklar va xatolar mavjudligi aniqlanganida; ma'lumotlar yoki vizalar uchun mo'ljallangan betlar ishlatilib bo'linganida; xorijga chiqish biometrik pasporti blankasi yaroqsiz holga kelganida; xorijga chiqish biometrik pasporti yo'qotib qo'yilganida;

sud ajrimi bilan xorijga chiqish biometrik pasportni amal qilishi to'xtatib turilganda;

(15-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan o'n birinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son) xorijga chiqish biometrik pasporti ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilganida.

Ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari xorijga chiqish biometrik pasportning amal qilishi to'xtatib turilganligi to'g'risidagi sud ajrimini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti orqali O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalariga ma'lumot uchun yuboradi.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan o'n uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

16. Familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, jinsi o'zgarganligi yoxud yozuvlarda noaniqliklar va xatolar mavjudligi aniqlanganligi munosabati bilan xorijga chiqish biometrik pasporti almashtirilayotganda fuqaro ma'lumotlarni yig'ish punktiga ushbu holatlarni tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etadi.

Fuqaro O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketayotganida xorijga chiqish biometrik pasportining amal qilish muddati bir yildan kam bo'lgan taqdirda, ushbu hujjat almashtirilishi mumkin.

17. Fuqarolar xorijga chiqish biometrik pasportini olish uchun ma'lumotlarni yig'ish punktiga yoxud konsullik ro'yxatiga olingan ma'lumotlarni yig'ish punktiga murojaat qiladilar.

(17-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)

(17-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqayotgan harbiy xizmatchilarning xorijga chiqish biometrik pasportlari bo'lmasa, shuningdek, ularga xorijga chiqish biometrik pasporti berish zaruriyati bilan bog'liq boshqa holatlarda xorijga chiqish biometrik pasportlari vazirliklar va idoralarning yozma iltimosnomalari asosida ushbu Nizomda belgilangan tartibda ma'lumotlarni yig'ish punktlari tomonidan beriladi. (17-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)

Keksa, o'zgarlar parvarishiga muhtoj va nogironligi bo'lgan shaxsga biometrik pasportni rasmiylashtirish va berish tegishli murojaatga asosan belgilangan tartibda ularning doimiy yashash yoki turgan joyiga chiqish orqali amalga oshiriladi. (17-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5885-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 06/20/5885/0067-son)

Fuqarolar xorijga chiqish biometrik pasportini olish yuzasidan ariza-anketani Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron tarzda yuborishlari mumkin. Bunda, ariza-anketani elektron raqamli imzo yoki shaxsni identifikatsiyalashning boshqa vositalari bilan tasdiqlash talab etilmaydi. (17-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi PF-6311-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son)

18. Xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish chog'ida ma'lumotlarni yig'ish punktiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi: belgilangan shakldagi ariza-anketa; biometrik pasport yoki ID-karta yoxud 16 yoshga to'lmagan fuqarolar uchun tug'ilganlik haqida guvohnoma; ilgari berilgan xorijga chiqish biometrik pasporti (mavjud bo'lgan taqdirda); vakolatli organning qarori (xorijga chiqish biometrik pasporti ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilganida);

protsessual majburlov chorasi bekor qilinganligi haqida tasdiqlangan qaror nusxasi (xorijga chiqish biometrik pasportning amal qilishi sud ajrimi bilan to'xtatib turilganida); (18-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan oltinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son) harbiy guvohnomaning yoki chaqiruv uchastkasida qayd etilganligi haqidagi guvohnomaning nusxasi yoxud mudofaa ishlari bo'limining belgilangan namunadagi ma'lumotnomasi — harbiy xizmatga majburlar uchun; davlat boji to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya; ota-onalar, vasiylar (homiylar)ning fuqaroning xorijga chiqishiga notarial tasdiqlangan roziligi — voyaga yetmaganlar uchun; fuqaroga hamrohlik qiluvchi shaxsning notarial tasdiqlangan majburiyati — voyaga yetmaganlar uchun. 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolar ota-onalar, vasiylar (homiylar)ning voyaga yetmagan shaxsning mustaqil ravishda xorijga chiqishiga notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda xorijga kuzatuvchisiz chiqishi mumkin.

Doimiy yashash uchun xorijga chiqishda O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan o'z ota-onalarining va turmush o'rtog'ining (birgalikda chiqish holatlari bundan mustasno), shuningdek, agar birgalikdagi nikohdan voyaga yetmagan bolalar bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan sobiq turmush o'rtog'ining notarial tasdiqlangan roziligi, ular vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan hollarda esa — vafot etganlik to'g'risidagi guvohnomaning yoki sudning shaxsni bedarak yo'qolgan deb e'tirof etish haqidagi qarorining notarial tasdiqlangan nusxasi ma'lumotlarni yig'ish punktlariga taqdim etiladi. (18-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5885-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 06/20/5885/0067-son)

Doimiy yashash maqsadida xorijga chiqish uchun murojaat qilgan fuqaroni ma'lumotlarni yig'ish punkti mas'ul xodimi mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq yozma ravishda ogohlantiradi.

(18-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

19. Xorijda turgan hamda vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish chog'ida konsullik muassasasiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

belgilangan shakldagi ariza-anketa;
ilgari berilgan biometrik pasport yoki xorijga chiqish biometrik pasporti (ular mavjud bo'lgan taqdirda);
tug'ilganlik haqida guvohnoma (16 yoshga to'lmagan fuqarolar uchun);
harbiy guvohnomaning yoki chaqiruv uchastkasida qayd etilganligi haqidagi guvohnomaning nusxasi yoxud mudofaa ishlari bo'limining belgilangan namunadagi ma'lumotnomasi — harbiy xizmatga majburlar uchun;
fuqaroga hamrohlik qiluvchi shaxsning notarial tasdiqlangan majburiyati — voyaga yetmaganlar uchun;
biometrik pasport yoki xorijga chiqish biometrik pasporti yo'qolganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (pasport yo'qolgan taqdirda);
konsullik yig'imi va boshqa yig'imlar to'langanligi haqidagi kvitansiya.

20. Doimiy konsullik ro'yxatiga olingan fuqarolarga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish chog'ida ma'lumotlarni yig'ish punktiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

belgilangan shakldagi ariza-anketa;
ilgari berilgan biometrik pasport yoki xorijga chiqish biometrik pasporti (ular mavjud bo'lgan taqdirda);
tug'ilganlik haqida guvohnoma (16 yoshga to'lmagan fuqarolar uchun);
biometrik pasport yoki xorijga chiqish biometrik pasporti yo'qolganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (pasport yo'qolgan taqdirda);
konsullik yig'imi va boshqa yig'imlar to'langanligi haqidagi kvitansiya.

21. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik bo'lmagan namunadagi pasporti orqali konsullik ro'yxatiga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun xorijga chiqish biometrik pasporti O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik bo'lmagan namunadagi pasporti asosida rasmiylashtiriladi.

(201-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5885-sonli Farmoniga kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 06/20/5885/0067-son)

21. O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmagan fuqarosiga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish chog'ida quyidagi holatlarda ota-onadan birining roziligi talab qilinmaydi:

(21-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

ota-onaning biri vafot etganligida (vafot etganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi taqdim etilgan taqdirda);
fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan berilgan yolg'iz onaning ma'lumotnomasi mavjud bo'lganida;

agar bolaning ota-onasidan biri xorij fuqarosi bo'lganida; ota-onadan biri sud tomonidan ota-onalik huquqlaridan mahrum qilinganida (sud qarorining nusxasi taqdim etilgan taqdirda); ota-onadan biri sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilganida (sud qarorining nusxasi taqdim etilgan taqdirda); ota-onadan biri sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganida (sud qarorining nusxasi taqdim etilgan taqdirda);

agar ota-onadan birining O'zbekiston Respublikasi hududidagi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxati xorijga doimiy yashashga ketganligi munosabati bilan bekor qilinganida. (21-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

Ushbu masala yuzasidan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasida chiqqan har qanday nizolar sud tartibida hal qilinadi. Ota-onaning biri o'z bolasining xorijga chiqishiga rozi bo'lmagan taqdirda, uning xorijga chiqish huquqini cheklash uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega. 16 yoshga to'lmagan shaxslar nomidan ularning ota-onalari, vasiylari (homiylari), ushbu shaxslarni xorijga yuborayotgan tashkilotlarning vakillari tegishli iltimosnomalar bilan murojaat qiladilar.

22. Davlat siri yoki harbiy sir bo'lgan ma'lumotlardan xabardor fuqarolarga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining tegishli organlari bilan kelishiladi. Davlat siri yoki harbiy sir bo'lgan ma'lumotlardan xabardor fuqarolarning xorijga chiqish biometrik pasportlari vazirliklar va idoralarning kadrlar bilan ishlash organlarida saqlanadi. Davlat siri yoki harbiy sir bo'lgan ma'lumotlardan xabardor fuqarolar xorijdan qaytib kelganlaridan keyin xorijga chiqish biometrik pasportini vazirlik va idoralarning kadrlar bilan ishlash bo'linmalariga topshirishlari shart. Vazirlik va idoralarning kadrlar bilan ishlash bo'linmalarida saqlanayotgan xorijga chiqish biometrik pasportlarining amal qilish muddati tugagach, belgilangan tartibda yo'q qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish punktiga jo'natiladi. Vazirlik va idoralarning kadrlar bilan ishlash bo'linmalarida saqlanayotgan xorijga chiqish biometrik pasportlari mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmatining tegishli organlari bilan kelishgan holda fuqarolarga qaytarib beriladi.

23. Xorijda doimiy yashayotgan va O'zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ushbu Nizomning 15-bandida ko'rsatilgan holatlarda xorijga chiqish biometrik pasportlarini rasmiylashtirish yoki almashtirish O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. (23-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5885-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 06/20/5885/0067-son)

O'zbekiston Respublikasiga kelish imkoniyati yo'qligi (doimiy yashash joyida qolgan holda, jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslar) bilan bog'liq alohida holatlarda konsullik muassasalari ushbu shaxslarga xorijga chiqish biometrik pasportlarini O'zbekiston Respublikasining tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan kelishgan holda, ularning xulosalari asosida rasmiylashtirib berishlari mumkin.

24. Taqdim etilgan hujjatlar asosida ma'lumotlarni yig'ish punkti ariza beruvchining biografik ma'lumotlarini, qo'l barmoqlarining elektron izlarini (16 yoshdan katta shaxslar uchun) to'plashni amalga oshiradi, yuzni to'g'ridan raqamli formatda rasmga oladi va xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirishga talabnomani shakllantiradi, talabnoma kelgusida DPMga jo'natiladi.

25. O'zbekiston Respublikasi hududida xorijga chiqish biometrik pasporti ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan hujjatlar qabul qilib olingan kundan boshlab o'n ish kunida, xorijda esa — diplomatik pochmani jo'natish grafigiga muvofiq belgilangan tartibda beriladi.

Fuqaroga va unga hamrohlik qiluvchi shaxsga (shaxslarga) xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish muddati O'zbekiston Respublikasidan zudlik bilan chiqib ketishni talab qiladigan holatlarda, shoshilinch davolanish zarurligini tasdiqlovchi viloyat va respublika miqyosidagi davlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan berilgan hujjatlar, yaqin qarindoshining og'ir kasalligi yoki vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganida, chiqish huquqiga cheklov bo'lmagan taqdirda 5 ish kundan oshmasligi lozim. Fuqaro xorijga chiqish biometrik pasportini yo'qotgan taqdirda yangi pasport belgilangan tartibda pasport yo'qolganligi haqida ariza berilgan kundan boshlab bir oy ichida beriladi. Arizani ko'rib chiqish muddati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq uzaytirilishi mumkin.

26. Qo'l barmoqlarining izlarini olish tartib-taomilidan bosh tortilgan va ko'zoynak taqib yoki bosh kiyim bilan suratga tushish istagi qat'iy bildirilgan holatlarda ma'lumotlarni yig'ish punkti fuqaroga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirishni rad etish huquqiga ega.

27. DPM tayyor bo'lgan xorijga chiqish biometrik pasportini DFX orqali uni rasmiylashtirish uchun talabnoma yuborgan ma'lumotlarni yig'ish punktiga yoxud O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga keyinchalik diplomatik yo'llar bilan konsullik muassasalariga yuborish uchun topshiradi, konsullik muassasalari pasport egasiga berilishini ta'minlashlari shart.

28. 16 yoshga to'lmagan shaxsning xorijga chiqish biometrik pasportlari uning otalariga, vasiylari (homiylari)ga, xorijga chiqish biometrik pasporti berish haqida iltimosnoma bilan murojaat qilgan tashkilotlarning vakillariga beriladi.

29. Fuqaro va qonuniy vakillar xorijga chiqish biometrik pasportini avaylab saqlashlari shart.

30. Xorijga chiqish biometrik pasporti yo'qolgan taqdirda fuqaro darhol ma'lumotlarni yig'ish punktiga yoxud konsullik ro'yxati bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish punktiga murojaat qilishi shart, mazkur punkt qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartib-taomillarni amalga oshirganidan keyin ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda fuqaroga yangi xorijga chiqish biometrik pasportini berish masalasini hal qiladi. (30-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)

Doimiy yoki vaqtincha konsullik ro'yxatida turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti yoki biometrik pasporti yoxud xorijga chiqish biometrik pasportining amal qilishi sud tomonidan to'xtatib turilgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasiga yangi xorijga chiqish biometrik pasporti olish

uchun murojaat etganda, amal qilishi to'xtatib turilgan pasporti ma'lumotlarni yig'ish punktiga yo'q qilish uchun jo'natish maqsadida olib qo'yiladi va unga pasporti olib qo'yilganligi haqida dalolatnoma berish yo'li bilan konsullik ro'yxatidan chiqariladi hamda O'zbekiston Respublikasiga qaytish uchun guvohnoma rasmiylashtirib beriladi. (30-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

31. Vaqtincha xorijda turgan va konsullik ro'yxatiga olinmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijga chiqish biometrik pasporti yo'qolgan, yaroqsiz holga kelgan, uning amal qilish muddati tugagan, ma'lumotlar yoki vizalar uchun mo'ljallangan sahifalaridan foydalanib bo'lingan holatlarda, shuningdek, sud ajrimi bilan uning amal qilishi to'xtatib turilganda yangi xorijga chiqish biometrik pasportini yoki O'zbekiston Respublikasiga qaytish uchun guvohnomani rasmiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasiga murojaat qiladilar. (31-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

Sud ajrimi bilan amal qilishi to'xtatib turilgan xorijga chiqish biometrik pasport O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan ma'lumotlarni yig'ish punktiga yo'q qilish uchun jo'natish maqsadida olib qo'yiladi, fuqaroga uning pasporti olib qo'yilganligi haqida dalolatnoma hamda O'zbekiston Respublikasiga qaytish uchun guvohnoma rasmiylashtirib beriladi. (31-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

32. Topib olingan xorijga chiqish biometrik pasporti ichki ishlar organiga yoxud O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasasiga topshirilishi lozim.

33. Vafot etgan fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga topshiriladi, mazkur organ xorijga chiqish biometrik pasportini keyinchalik yo'q qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish punktiga jo'natadi.

Xorijda vafot etgan fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti uni bergan ma'lumotlarni yig'ish punktiga keyinchalik yo'q qilish maqsadida jo'natish uchun O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga jo'natiladi.

34. Qamoqqa olingan yoki ozodlikdan mahrum qilishga, majburiy jamoat ishlariga, axloq tuzatish ishlariga yoxud ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan va shartli hukm qo'llanilgan shaxslardan xorijga chiqish biometrik pasporti surishtiruv, tergov organlari, ichki ishlar organlarining probatsiya bo'linmalari yoki sud tomonidan olib qo'yiladi. Shaxs qamoqda qoldirilgan yoki sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan taqdirda xorijga chiqish biometrik pasporti O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Jazoni ijro etish bosh boshqarmasiga jo'natiladi. (34-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi PQ-207-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 07/22/207/0310-son)

Qamoqdan ozod qilinganda yoki jazo muddati o'tab bo'linganidan keyin xorijga chiqish biometrik pasporti surishtiruv, tergov organlari, ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish

inspeksiyasi, sud tomonidan yoxud jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati tomonidan egasiga qaytarib beriladi. Xorijga chiqish biometrik pasporti surishtiruv, tergov organlari yoki sud tomonidan ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilgan taqdirda yangi pasport vakolatli organning olib qo'yish haqidagi tegishli qarori taqdim etilgach ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan rasmiylashtiriladi.

341. Sud ajrimi bilan amal qilishi to'xtatib turilgan xorijga chiqish biometrik pasport ichki ishlar organlari tomonidan ma'lumotlarni yig'ish punktiga yo'q qilish uchun jo'natish maqsadida olib qo'yilganda fuqaroga uning pasporti olib qo'yilganligi haqida dalolatnoma beriladi.

(341-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

35. Tekshirish, verifikatsiyalash jarayonida noaniqliklar yoki chegara (migratsiya) qaydlari, xorij vizalari, ruxsat beruvchi yozuvlar soxtalashtirilganligini ko'rsatuvchi belgilar aniqlangan biometrik pasport yoki xorijga chiqish biometrik pasporti, shuningdek, belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilgan yoki sud ajrimi bilan amal qilishi to'xtatib turilgan biometrik pasport yoki xorijga chiqish biometrik pasporti chegara nazorati bo'linmalari tomonidan tegishli vazirliklar va idoralarga jo'natish uchun olib qo'yilishi mumkin. Pasport olib qo'yilgan taqdirda chegara nazorati bo'linmasi tomonidan fuqaroga uning pasporti olib qo'yilganligi haqida dalolatnoma beriladi. (35-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

36. Quydagilar taqiqlanadi: ushbu Nizomda nazarda tutilgan holatlardan tashqari fuqarodan xorijga chiqish biometrik pasportini olib qo'yish; xorijga chiqish biometrik pasportini majburiyatlarni ta'minlash maqsadida garov sifatida qabul qilish va topshirish.

37. Ushbu Nizom talablarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shtamplar va blanklarning namunalari tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, Mudofaa vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan tasdiqlanadi.

38. Xorijga chiqish biometrik pasporti berilganligi uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda davlat boji yoki konsullik yig'implari undiriladi. To'liq davlat ta'minotida bo'lgan shaxslar davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

3-bob. Xorijga chiqish huquqidagi cheklovlar

39. Xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirishni rad etishga quyidagilar asos bo'ladi:

a) agar shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa — ish yuzasidan uzil-kesil sud qarori yoki boshqa qaror qabul qilingungacha;

b) agar shaxs ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratida bo'lsa — nazorat to'xtatilgungacha;

v) agar shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo va shartli hukm qo'llanilgan bo'lsa — jazoni o'tab bo'lgungacha yoki jazodan va shartli hukmdan

ozod qilingunigacha;
g) agar shaxsda sud tomonidan yuklangan ijro etilmagan majburiyatlar bo'lsa — majburiyatlar ijro etilgunga qadar, voyaga yetmagan bolalarni ta'minlash uchun alimentlar oldindan to'langanligi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotnomalari bilan tasdiqlangan holatlar bundan mustasno;
d) agar shaxs o'zi to'g'risida qasddan soxta ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;

e) agar shaxsga nisbatan vakolatli organlarning mazkur shaxs xorijga chiqishi maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatuvchi axboroti (qonun buzilishlar ro'yxati tegishli organlar tomonidan belgilanadi) mavjud bo'lsa — u hisobga qo'yilgan kundan boshlab bir yil o'tgungacha. Bunda xorijga chiqishiga nisbatan qo'yilgan cheklovni belgilangan muddatidan oldin bekor qilish masalasi tashabbuskor vakolatli organning yozma xati asosida amalga oshiriladi.
(39-bandning "e" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)
Xorijga chiqish biometrik pasporti berishni rad etish asoslari ro'yxati batafsil talqin qilinmaydi.

Xorijga chiqish biometrik pasporti rasmiylashtirilganidan keyin shaxsning O'zbekiston Respublikasidan chiqishi uchun vaqtinchalik cheklash belgilangan taqdirda, uning Davlat chegarasi orqali o'tish huquqini cheklash tegishli davlat organlarining murojaatiga asosan chegara nazorati bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.
(39-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoniga asosan to'qqizinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)
Agar shaxs davlat siri yoki harbiy sir bo'lgan ma'lumotlardan xabardor bo'lsa yoki unga nisbatan xorijga chiqishiga to'sqinlik qiladigan shartnoma, kontrakt majburiyatlari amal qilayotgan bo'lsa, unga ushbu majburiyatlarning amal qilish muddati tamom bo'lguniga qadar xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish rad etilishi mumkin.

40. Xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirishni ushbu Nizomning 39-bandida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha rad etish, shuningdek, murojaatni belgilangan muddatdan ortiq vaqt davomida ko'rib chiqish yuzasidan bo'ysunish tartibida yuqori organga yoxud bevosita sudga shikoyat qilinishi mumkin.

4-bob. Konsullik ro'yxati
41. Belgilangan tartibda xorijga doimiy yashash uchun chiqib ketgan, shuningdek, olti oydan ortiq muddat davomida xorijda vaqtinchalik turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari konsullik muassasalarida doimiy yoki vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga turishlari lozim.

42. O'zbekiston Respublikasidagi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxati bekor qilinib, xorijga doimiy yashashga chiqish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma rasmiylashtirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari doimiy konsullik ro'yxatiga olinadilar.
(42-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)

43. Xorijga xizmat safariga, o'qishga, davolanishga, ishga va o'z oilasi bilan birlashish

uchun chiqib ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olinadilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi borgan mamlakatida qonuniy tarzda yashayotgan bo'lsa va mamlakatga olti oydan ortiq muddatga borgan bo'lsa vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olinadi.

44. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari doimiy yashash joyini, shuningdek, ish, o'qish yoki xizmat safari joyini olti oydan ortiq muddatga o'zgartirganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasiga qarashli boshqa konsullik muassasasining konsullik okrugi hududiga ko'chib o'tgan taqdirda oldingi yashash joyidagi konsullik ro'yxatidan (doimiy, vaqtinchalik) chiqishlari hamda yangi kelgan joylarida konsullik ro'yxatiga olinishlari lozim.

45. Doimiy konsullik ro'yxatiga olish uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda konsullik yig'implari undiriladi.

46. Vaqtincha yashash uchun xorijga chiqib ketgan, u erda qonuniy tarzda yashayotgan hamda xorijda doimiy yashashga qaror qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari doimiy yashash uchun ruxsatnomani rasmiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining tegishli konsullik muassasasiga quyidagi hujjatlar bilan murojaat qilishlari shart:

belgilangan shakldagi ariza-anketa;
biometrik bo'lmagan namunadagi pasport yoki biometrik pasport yoxud xorijga chiqish pasporti;
biometrik tug'ilganlik haqida guvohnomaning nusxasi;
harbiy guvohnomaning yoki chaqiruv uchastkasida qayd etilganligi haqidagi guvohnomaning nusxasi yoxud mudofaa ishlari bo'limining belgilangan namunadagi ma'lumotnomasi (harbiy xizmatga majburlar uchun);
O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan o'z ota-onalarining va turmush o'rtog'ining (birgalikda chiqish holatlari bundan mustasno), shuningdek, agar birgalikdagi nikohdan voyaga yetmagan bolalar bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan sobiq turmush o'rtog'ining notarial tasdiqlangan roziligi;
konsullik yig'implari to'langanligi haqidagi kvitansiya.
Fuqaro o'zi yashab turgan mamlakatda O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi bo'lmagan taqdirda, mazkur mamlakat O'zbekiston Respublikasining xorijdagi qaysi konsullik okrugiga kirsa o'sha konsullik okrugining konsullik muassasasiga murojaat qiladi. Xorijdagi konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining doimiy yashashni rasmiylashtirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuboradilar. Konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining doimiy yashash uchun ruxsatini olgach, ariza beruvchini doimiy konsullik hisobiga qabul qiladilar.
(46-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5885-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 06/20/5885/0067-son)

47. Xorijda doimiy yashayotgan va O'zbekiston Respublikasiga doimiy yashash joyiga qaytib kelishni rejalashtirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasasidagi konsullik ro'yxatidan chiqishlari lozim.

Agar fuqarolar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lsalar, ular konsullik ro'yxatidan chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga murojaat qiladilar.

48. Konsullik ro'yxatiga olish va chiqarish haqidagi arizalarning, fuqarolarni konsullik ro'yxatiga olish va chiqarishga doir qayd etish kitoblari va boshqa hujjatlarning shakllari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

5-bob. Ushbu Nizomni buzganlik uchun javobgarlik

49. Qonun hujjatlari bilan quyidagilar uchun javobgarlik belgilanadi:

(49-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-112-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2022-y., 06/22/112/0326-son)

xorijga chiqish biometrik pasportiga ataylab shikast yetkazish, shuningdek, xorijga chiqish biometrik pasportini ehtiyotsizlik bilan saqlab, uning yo'qolishiga sabab bo'lish; yo'qolganligi haqida ariza berilgan xorijga chiqish biometrik pasportidan, shuningdek, boshqa shaxsga qarashli bo'lgan xorijga chiqish biometrik pasportidan g'arazli maqsadlarda foydalanish; xorijga chiqish biometrik pasportini qonunga xilof ravishda olib qo'yish yoki uni garov sifatida qabul qilish;

xorijga chiqish biometrik pasportiga g'arazli yoki boshqa tuban niyatlar bilan ega bo'lib olish, shuningdek, uni yo'q qilish, yaroqsiz holga keltirish, yashirish.